

## Institutimiz dunyoning kuchli universitetlari reytingiga kirdi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti mustaqil O'zbekiston tarixida birinchi marotaba 2020 yil uchun QSning Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari universitetlari reytingida qayd etildi.

Bu Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining Respublika oliy ta'lif muassasalarini xalqaro nufuzini oshirish maqsadida Times Higher Education va QS kabi dunyoning yetakchi xalqaro agentliklari bilan so'nggi ikki yil ichida olib borgan hamkorligi natijasidir.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti QS reytingida akademik so'rovnoma, ish beruvchilarning bahosi va ilmiy salohiyati kabi mezonlarda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari universitetlari o'rtasida ijobiy ko'rsatkichlarni qayd etib, 301-350 o'rinal oralig'idagi universitetlar qatoridan joy oldi.

(Ma'lumot uchun: QS reyting agentligi tomonidan ilmiy tadqiqotlarga 20%, akademik so'rovnomaga (jahon OTMlariiga o'rganilayotgan universitet yuzasidan so'rovnoma yuborish, jahon OTMlari uchun tanilishda ilmiy tadqiqot ishlarining roli yuqori) 30%, ish beruvchilar so'rovnomasiga 20%, o'quv jarayoniga 15%, boshqalarga 15% ajratilgan.)

Ushbu reytingda 1-o'rinni Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, 2-o'rinni Sankt-Peterburg davlat universitetlari egalladi. Reytingda Rossiya, Chexiya, Turkiya, Venegriya, Polsha, Ruminiya, Sloveniya, Xorvatiya, Belarus, Bolgariya kabi davlatlarning yetakchi universitetlari joy oldi.

Hozirda vazirlik tomonidan xalqaro ekspertlar bilan birgalikda respublikamizning yetakchi oliy ta'lif muassasalarini bosqichma-bosqich xalqaro reytingga kiritishga tayyorlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Xorijiy ekspertlar tomonidan respublikaning 10 ta oliy ta'lif muassasasi (O'zMU, TIQXMMI, TDTU, TATU, SamDU, TDAU, UrDU, TTA, Turin politexnika universiteti, QQDU) tanlab olindi va ularning Times Higher Education va QS bazasida tegishli profillari yaratildi. Ekspertlar shu 10 ta oliy ta'lif muassasasi bilan yaqindan ishlamoqda.

Institutning rasmiy telegram kanaliga  
ulanish - <https://t.me/ilovetiiame>